

MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA MILLIY G'URUR TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**M.Q.Uraimjonova**

*O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Huquqiy fanlar kafedrası "Ijtimoiy-gumanitar fanlarni
o'qitish metodikasi" yo'nalishi 1-kurs magistranti.*

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta'limotida milliy g'urur tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik, milliy g'urur ruhida tarbiyalashda mutafakkirlarning fikrlari asosida muammolar ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Prezidenti Sh.Mirziyoyev, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy O'zbek xalqi, milliy g'urur, vatanparvarlik.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari talimotida milliy g'urur tushunchasi juda muhim o'rin tutadi, chunki bu mintaqadagi ko'plab buyuk olimlar, yozuvchilar, siyosatchilar va shaxslar o'z xalqining o'ziga xosligini, milliy madaniyatini va tarixiy merosini saqlashga va rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Milliy g'urur, ularning asarlarida va g'oyalari orqali, xalqni birlashtiruvchi kuch sifatida ifodalanadi. Bu tushuncha, turli mutafakkirlar tomonidan har xil shakllarda aks etgan va har birining o'ziga xos yondoshuvi mavjud. Mustaqillik va erkinlikda esa Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ko'pchiligi o'z xalqining mustaqilligi va erkinligini ta'minlashni milliy g'urning ajralmas qismi deb bilgan. Ayniqsa, Shavkat Mirziyoyev, Islom Karimov, A. Farg'oniy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shaxslar, o'zlarining g'oyalarida milliy mustaqillikni, o'z erkinligini saqlashni, mustaqil davlatni qurish va xalqning ma'naviy mustahkamligini kuchaytirishni asosiy vazifa deb belgilaganlar. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta'limotida milliylik, milliy iftixor, millatparvarlik, milliy g'urur tushunchalariga va uning jamiyat xalq hayotidagi o'rni haqida ko'plab fikrlar bildirilgan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ham mushohodalar ko'rsatib o'tilgan. Bizga ma'lumki O'rta Osiyodan ilm-fan sohasining gullab-yashnashi, yanada rivoj topishi uchun ko'plab ishlar qilingan. Masalan, turli hajmda tarixiy manbalar qoldirilib, ular kitobcha, asar, teriga, taxtaga, toshlarga yozilgan holatda bizning davrgacha saqlanilib, hozirgi kunda ham ilm-fan, ta'lim sohasining rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelmoqda. "Tarixdan ma'lum, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi

paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur’’⁴⁸

Mutafakkirlar milliy gurur tushunchasini faqat siyosiy mustaqillik bilan bog‘lamagan, balki milliy san‘at va madaniyatni rivojlantirishga ham katta e‘tibor qaratganlar. Alisher Navoiy, Mahmud Koshg‘ariy, Xoja Ahror Vali kabi buyuk mutafakkirlar milliy g‘ururni milliy til, adabiyot va san‘at orqali yuksaltirishga harakat qilganlar. Ularning asarlarida milliy madaniyatning yuksalishi, xalqni birlashtirish va uning ulug‘vorligini ta’kidlash mavjud.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining talimotlarida mustaqil fikr va yuksak ma’naviyatni rivojlantirish ham milliy gururning ajralmas qismi sifatida aks etadi. Mirzo Ulug‘bek, Al-Xorazmiy kabi olimlar ilm-fan va madaniyat sohalarida erishgan muvaffaqiyatlari bilan xalqning sharafiga oshirishgan va milliy g‘ururni saqlashda ilmiy ishlanmalarni kengaytirganlar. Ularning ilm-fan va ma’rifatga bo‘lgan yondoshuvi, o‘z xalqining bilimga bo‘lgan munosabatini ham yuksaltirishga xizmat qilgan.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining yana bir muhim g‘oyasi – bu milliy birlik va hamjihatlikni ta’minlashdir. Milliy g‘ururning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, xalqni birlashtirish va milliy manfaatlarni ta’kidlash orqali davlatning mustahkamligini oshirishdir. Mutafakkirlar xalqni birlashtirish va jamoat ishlari uchun birgalikda harakat qilishga undaganlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, ‘‘Bu asriy orzu xalqimiz erishgan Birinchi Renessansga va ilk o‘rta asrlardagi Ma’rifiy uyg‘onish davriga asos bo‘lgan, uning poydevori sifatida xizmat qilgan desak, yangilishmagan bo‘lamiz’’⁴⁹

Komillikka eltuvchi axloqiy fazilatlar hamda yoshlarda o‘z yurti va ota-onasini ko‘z qorachig‘iday asrash kabi iftixor ruxida tarbiyalashda mutafakkir Jaloliddin Rumiynig tasnifi va tavsiflari diqqatga sazovordir. Ayniqsa, allomaning ‘‘Masnaviy’’ nomli asari bo‘lib, ‘‘Masnaviy’’da so‘zning asl mohiyati shundan iboratki, bu ‘‘nay’’ o‘z nayistoniga qaytishni xohlaydi va qayta oladi, qaytishi ham shart. Unga qaytish o‘z asliga qaytish demakdir⁵⁰. Ammo Mavlono bu fikr atrofida juda ko‘p axloqiy, irfonii va ijtimoiy bahsu munozaralar, farzandlarni shu yurtga sadoqat va fidoiylilik ruhida va umuman bu jahon borlig‘iga aloqasi bo‘lgan masalalarni o‘rtaga tashlaydi.

⁴⁸ <https://kun.uz/news/2023/12/22/prezident-manaviyat-va-marifat-sohasida-9-ta-yonalishda-muhim-tashabbuslarni-ilgari-surdi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F12%2F22%2Fprezident-manaviyat-va-marifat-sohasida-9-ta-yonalishda-muhim-tashabbuslarni-ilgari-surdi>

⁴⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>

⁵⁰ Jumaboev Y. O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. T., 1997.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta’limotida vatanni ulug‘lash, ota-onani e’zozlash, iftixor tuyg‘ulari to‘g‘risida, ayniqsa komil inson g‘oyasi haqida ko‘plab fikr-muloxazalar bildirilgan. Komil inson g‘oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma’naviyat va ma’rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg‘urmagan xalqning, millatning kelajagi yo‘q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum. Mavloni Jaloliddin Rumiy insonning komil inson bo‘lib yetishishi, uning tarbiyasi, dunyoqarashi, sog‘ligi, hurmat e’tibor qozonishi, ilmi, baxtli bo‘lishi, o‘zining tug‘ilib o‘sgan yurtiga fidoiy bo‘lishi, ota-onasi va o‘z g‘ururini himoya qilishi, umuman olganda, inson nomiga munosib bo‘lib yetishishi uchun zarur bo‘lgan xislatlarni o‘zining qarashlarida bayon etgan⁵¹. Markaziy Osiyo xalqlarining keyingi ming yillik tarixida turlicha an’ana va odatlarning shakllanib qolishi va rivojlanishi kuzatish mumkin. Joriy yilda madaniy-gumanitar sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qilingan ishlar haqida gapirganda, avvalo, madaniyat, adabiyot va san’at, ommaviy axborot vositalari sohasiga taalluqli 12 ta muhim hujjat qabul qilinganini qayd etish lozim⁵². Markaziy Osiyo mutafakkirlarining talimotlarida milliy g‘urur nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan, balki ma’naviy va axloqiy jihatdan ham kuchaytirilgan. Abu Ali ibn Sino, Farobiy, Sufiyar kabi allomalarning asarlarida, ma’naviy saodat va axloqiy qadriyatlarni saqlash, xalqni bilim va madaniyatga erishishga undash milliy g‘ururning muhim qismidir.

Mutafakkir Voiz al-Koshifiyning aytganidek, “Har kishida muloyimlik, hushmuomalalik bor bo‘lsa, fayz, kamol topishidan o‘zga ehtimol yo‘qdir. Har kishi batfe’l bo‘lsa, bebro‘ bo‘lishdan boshqa chora yo‘qdir. Hushfe’llik, muloyimlik hamma ne’matlarning yaxshirog‘idir”⁵³.

Mustaqillagimizni qo‘lga kiritgan kundan boshlab o‘tgan yillarga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, juda ko‘p bunyodkor ishlari amalga oshirildi. Bunda tarixiy obidalarimizning qaytadan tiklanishi, ta’mirlanishi, buyuk ajdodlarimiz ruhlarini pok etish, xar bir yosh avlod ta’lim-tarbiyasini chuqur ma’suliyat bilan his etgan xolda ularga bilim berish, ularni jismonan baquvvat, aqlan kuchli bo‘lishlari uchun imkoniyat va shart-

⁵¹ .Muhammadiyev F. "Mutafakkirlar", "Movarounnaxr" nashriyoti T; 2011, 45b

⁵² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2017 йил 22 декабрь. [Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.](#)

⁵³ М.Мухаммад Дўст, О.Мусурмонова, Т.Рискиев ва бошқалар. Соғлом авод – бизнинг келажакимиз. –Т.: Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти. 2000. 59-бет.

sharoitlar yaratish kabi ishlar amalga oshirildi. Bunday bunyodkor ishlarning natijasida ularda yurt uchun fidoiy, ota-onasi va xalqini e’zozlab, qarlovchi insonlarni voyaga yetkazish mumkin.

Yoshlarga ajdodlarimizdan qolgan madaniy merosga muxabbat, xususan, milliy urf-odatlarimiz, rasm-rusumlarimiz, baramy-sayillarimizga sadoqat, yaratilgan buyuk imkoniyatlarni qadriga yetgan holda o’zi va yurti kelajagi uchun doimo olg’a intilib borishida, ularga bugungi kunda insonning o’zi bir qadriyat ekanligi, insonparvar, demokratik jamiyat sharoitida butun jamiyat, butun davlat insonga xizmat qilishi zarurligini, har qanday qonun, har qanday qoida yoki nizom insonni e’zozlashga qaratilganligini ishonarli dalillar, ilmiy argumentlar, o’tmishning achchiq tajribasini har tomonlama tahlil qilish yordamida tushintirilib berilishi zarur

O’tgan avliyolarning qabrlarini ham ziyorat qilish va ularga yanada katta e’tibor berish maqsadida ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqida Yurtboshimizning katta e’tiborlari qaratilgan. “Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo’lgan “kichik haj” dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to’liq ishga solish lozim⁵⁴.”

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining talimotida milliy g’urur tushunchasi xalqning tarixiy merosi, madaniyati, ilm-fan va siyosiy mustaqilligini yuksaltirishga asoslangan. Milliy g’urur, mintaqa xalqlarining o’ziga xosligini, qadriyatlarini hurmat qilish va birlashtiruvchi kuch sifatida faoliyat ko’rsatgan. Ularning asarlarida milliy birlik, madaniyat, ilm-fan va erkinlikni targ’ib qilish, shuningdek, o’z xalqining sharafigi va mustaqilligini saqlashga qaratilgan ideallar aks etadi. Bugun O’zbekistonda yangi jamiyat qurish bir tomondan, xalqimiz uchun muqaddas bo’lgan qadriyatlarga va ulkan tarixiy merosga tayangan bo’lsa, ikkinchi tomondan, umum e’tirof etilgan demokratik tamoyil va me’yorlarga rioya qilingan holda amalga oshirilmoqda. Bunga erishmoq uchun tinimsiz intilish, jamiyat hayotining barcha sohalarini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o’rganib, o’z zaminimizga tadbiq etish lozim. Shu bilan birga milliy o’ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o’tgan an’analarni hamisha iymon – e’tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab, yuksaltirib borishimiz zarur.

⁵⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2017 йил 22 декабрь. [Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.](#)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T-“O‘zbekiston”-2016.
2. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil,qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T. “O‘zbekiston”-2017.
- 3.Sh.Mirziyoyev. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 2017 yil 7-fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi . 2017-yil 22-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
5. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangila- nish sari. / Nashrga tayyorlovchilar: M.Bekmurodov, Q.Quronboyev, L.Tangriyev. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
6. Jumaboev Y. O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. T., 1997.
7. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi.T., “Akademiya”, 2005.
- 8 .Muhammadiyev F. "Mutafakkirlar", "Movarounnaxr" nashriyoti T; 2011
9. / <http://president.uz>